

**Normurodova Nigora**

**BuxDU 10.00.02 ixtisosligi I bosqich doktoranti (O'zbekiston)**

---

## **SADRIDDIN AYNIY VA UNING “ESDALIKLAR” MEMUAR ROMANI**

**Annotatsiya:** Maqolada memuar janriga xos bo'lgan xususiyatlar va Sadridin Ayniyning “Esdaliklar” memuar romani tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Sadridin Ayniy, “Esdaliklar”, memuar asar, yozuvchi uslubi, real hayot.

**Аннотация:** В статье анализируются особенности мемуарного жанра и мемуаров Садриддина Айни “Воспоминания”.

**Ключевые слова:** Садриддин Айни, «Воспоминания», мемуары, писательский стиль, образ жизни.

**Annotation:** The article analyzes the characteristics of the memoir genre and Sadridin Aini's memoir novel "Memories".

**Key words:** Sadridin Aini, "Memories", memoir, writer's style, real life image.

---

Memuar (frans. Memore-xotira, esdalik degan ma'noni anglatadi) - o'tmish xotiralari haqidagi asar. Memuar asarlarning markazida kishilarning shaxsiy hayoti turadi. Hikoyalar, voqealar rivoji uchun kishilarning hayot yo'li asos bo'ladi. Memuar asarlar kishining butun bir hayotini emas, balki kishi hayotidagi ayrim lavhalarni tasvirlaydi. Agar roviy o'z oilasini ta'riflamochi bo'lsa, buni shu oila hayotini alohida e'tiborga loyiq voqealarinigina sharhlaydi. Buni S.Ayniyning “Esdaliklar”i misolida ko'ramiz. U oilasi tasvirini quyidagi “Esdaliklar” tarkibiga kirgan ushbu hikoyalar bilan beradi. “To'y”, “Otamning otasi”, “Mahallai Bolo qishlog'i”, “Sokrate qishlog'i”, “Sokrate qishlog'idagi hovlimiz” kabi hikoyalar memuarlarda marjonday tizilib, o'qiguvchiga butun bir tasavvur uyg'otadi. Bu barcha memuar asarlarning o'ziga xos xususiyatidir. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib ushbu janrga ta'rif bersak bo'ladi.

Memuar- bu jamiyat hayotida ma'lum va mashhur bo'lgan roviyning voqea-hodisaning bevosita ishtirokchisi sifatida, bu voqealarni boshqalarga birinchi shaxs tilidan bayon qilishi hisoblanadi. Bu janrni dunyoga kelishi uchun 2 asosiy xususiyat zarur:

1. Yozuvchi hayot yo'lida sodir bo'lgan voqealardan ta'sirlanishi va ularni bevosita ishtirokchisi bo'lishi;

2. Sarguzashtlarni boshqalarga bildirish istagi.

Memuarlarga xos bo'lgan umumiy xususiyat:

1. Hikoya bilan qat'iy aloqadorlik.

2. Asar davomida faktlarning berilishi (Joy nomlari, kishilar nomlari, yillar, shaharlar aniq faktlarda berilgan bo'lishi kerak).

3. Hikoyalarni surunkali ravishda bayon qilinishi.

Yuqoridagi xususiyatlarga qaramay, yozuvchilar bu janrda qalam tebratganlarida tarixni subyektiv baholaydilar. Yoki bo'lmasa asllikdan chekinishadi. Bunga asosiy sabablar xotiraning zaiflashuvi yoki davr va hukumat ta'labi. Chunki hech bir inson boshidan o'tganlarini to'liq ravishda eslab qolish imkoniyatiga ega emas.

Ikkinchi sababga to'xtaladigan bo'lsak, albatta, yozuvchi davr talabini hisobga olmay iloji yoq. Ayniyning ham "Esdalik"larida Sovet hukumatiga bo'lgan ijobiy ta'sirlarni ko'rishimiz mumkin.

O'zbek adabiyotida memuar asarlarning asosan ikki turi uchraydi. Bular:

1. Tarixiy memuarlar.
2. Badiiy memuarlar.

Tarixiy memuarlar ichida shoh asar bo'lgan, Boburning "Boburnoma" asari dunyo adabiy jamoasi tomonidan tan olingan va hozirgacha o'z ahamiyatini yoqotmay kelayotgan qimmatli asardir. G'arbda bu asarni dastlab Villian Erskin, Jon Leiden, Susannah Beveradgelar o'rgangan. Hozirgi kunda Beveradgening inglizcha tarjimasini olimlar tomonidan mukammal va aniq deb topilgan. Bobur o'rta asr tarixining nihoyatda maftunkor shaxsi edi. Unga berilgan ta'riflarning sanog'i yoq. Vinsent Artur Smitning ta'kidlashicha, "Bobur o'z davrining nihoyatda ulug'vor Osiyo shaxzodasi bo'lib, u istalgan davr yoki istalgan davlat imperatorlari orasida yuqori unvonda turishga haqli. Uning tarixiy asari ham madaniy, ham tarixiy, ham iqtisodiy va hatto tabobatga oid bilimlarni ham bizga ochadi".

Biz memuarlarning dastlabki badiiy turini Alisher Navoiy ijodida uchratamiz. Olimning ustozlariga bag'ishlab yozgan asarlari buning yaqqol misoli. Bular: "Xamsat ul-mutahhayirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Mahammad". Bu asarlar Navoiyning nasrdagi ijodining namunalari.

Ushbu janrning xususiyatlarini Sadridin Ayniyning "Esdaliklar" asari misolida ochib berishni maqsad qildim. Eng avvalo ushbu asarning janrini memuar-roman sifatida belgilaymiz. Asar sintetik janr xarakteriga ega bo'lib, u avtobiografiya, sayohat, kundalik, tarixiy yilnoma kabi janr xususiyatlarini ham o'zida namoyon qilishi ham mumkin. Memuar-roman tarixiy xarakterga ega. Hikoyalar uch siyosiy tuzumning shohidi bo'lgan mahoratli yozuvchi Sadridin Ayniy hayotidagi real voqealarga asoslangan bo'lib, u yozuvchining kechinma va mulohazalarga boy xotiralaridir. Adibning "Esdaliklar" memuar-romani kompozitsion jihatdan to'rt qismdan iborat bo'lib, voqealar asosan ikki joyda bo'lib o'tadi. Bular: "Qishloqda" va "Shaharda". Roman sujeti muallifning uch yoshligidan boshlab toki amir hukumatining yoq qilinishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Asarda lirik chekinishlar ham uchrab turadi. Ushbu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, yozuvchi Ahmad Donish, Hayrat va o'z ijodiga aloqador bo'lgan va ilgari hech qayerda uchramagan lirik parchalarni memuar-roman davomida keltirib o'tadi. Bu bilan asar kompozitsiyasini ya'nada boy bo'lishiga xizmat qiladi. Yozuvchi boylar, dehqonlar, ilmi toliblar, shoirlar, diniy tabaqa vakillari va boshqa toifadagi insonlar taqdiri haqida gapiradi. Parcha-parcha hikoyalar keltirish va bir voqeadan ikkinchi bir voqeaga tezda o'tish "Esdaliklar"ga xos bo'lgan xususiyatdir. Sadridin Ayniy o'z hikoyalarida takrorlanmas landshaftni chizadi. Asarda keltirilgan xronotop voqealar rivoji uchun fon vazifasini bajaradi. Masalan memuarining birinchi qismida keltirilgan "Qizilqumning ko'chishi" sarlavhasi ostidagi hikoyaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tabiat ofatining daxshatli oqibatlarini landshaftlarni bir biriga teskari keltirib tasvirlaydi. Ya'ni bola dastlab tabiatning go'zalligidan quvonadi va ko'ngli dala safarini istab qoladi. U tabiatning nozik go'zalligini ushbu satrlarda ta'riflaydi: "Ro'dning janubi bo'lmish hovlimiz tomondagi qator tollar hali barg chiqargan bo'lmasalar ham, yetilgan uzum boshlari kabi bargak

yoʻzib, roʻd boʻyini may oyidagi koʻkalamzorga aylantirgan edilar, u daraxtlarning shoxlaridan shoxlariga uchib-qoʻnayotgan chumchuqlarning chirqillashlari, qaldirgʻoch, mayna, saʼvalarning sayrashlari, u yerning havosi kabi odamga yoqimli edi” [1,20]. Yosh adib tabiat goʻzalligidan maftun boʻlib dalaga chiqadi. Yoʻlda tollar va qushlar manzarasiga duch keladi va insonning tabiatiga yoqimli boʻlgan havoni his qiladi. Ammo toʻsatdan boshlanga qum koʻchishi uning diliga qorongʻulikni keltiradi. “Qum, shamol kunidagi koʻl suviga oʻxshab lapillab sekin-sekin oldin kelmoqda edi, qumning yuzdagi qatlami lapilab surilib, roʻdning qirgʻogʻiga tushar va ostki qatlami uning orqasidan lapillab harakatga kelardi” [1,22]. Ushbu manzara tasvirida qumning koʻchishi va uning harakati obrazli tasvirlangan. Yozuvchi “lapillab” soʻzi orqali vaziyatga taqlid qilib, ushbu ofatning harakatini keltiradi. Oʻquvchi bu tabiat hodisasini yanada yaqqol tasavvur qilishi uchun uni suvga oʻxshatadi. Landshaftni yanada rivojlantirib, vaziyatni davom ettiradi: “Ekinzorlar qumzorlardek taygʻoq emas edi, shamol ham orqadan esardi, shuning uchun uyga qarab borishim uncha qiyin emasdi. Lekin yerda va koʻkda men tomoshaga chiqqan vaqtimdagi latofat va xurramlikdan asar ham qolmagan edi –maysa, sabza va se bargalar qum gardi ostida qolib, soʻlgan, yoqimli, xushboʻylik oʻrnida odamning ogʻiz va burniga yoqimsiz qum changi kirardi ...” [1,22]. Yuqoridagi hikoyada landshaft sujetni harakatga keltirdi va voqea uchun fon vazifasini bajardi. Mohir yozuvchi qum koʻchishidan oldingi va keyingi manzaralarni oʻquvchiga havola qilib, vaziyatning umumiy koʻrinishini tasvirlab berdi.

Bundan tashqari romanda sujetni harakatga keltiruvchi bir nechta motivlar ham mavjuddir. Hikoyalarda oʻlim motivi bilan bir qatorda sevgi va yoʻl (safar) motivlari ham kompazitsion tarkibdan oʻrin olgan. Yozuvchi deyarli ham bir qismda oʻlim hodisasini yoritadi. Tugʻulish mavjud ekan, oʻlim unga hamroh boʻladi. Donishmand nosir ushbu motivni koʻplab personajlari misolida koʻrsatgan.

Sadridin Ayniyning “Esdaliklar” asari oʻzida memuar janrning xususiyatlarini namoyon qiladi. Ushbu asarda tarixiylik, subyektivizm, faktik tabiat, psixologizm kabi xususiyatlar birlashadi. Tarixiylik nuqtai nazaridan oladigan boʻlsak, “Esdaliklar” amir zamonlari haqidagi voqealarni oʻz ichiga oladi.

Har qanday asar subyektiv fikrlar oqimi bilan boyitilgan boʻladi. Memuarlarda ham ushbu xususiyat yetakchi oʻrin egallaydi. “Esdaliklar”ning personajlar tasvirida koʻp oʻrinda subyektiv fikrlarni uchratishimiz mumkin. Memuar-romanda hissiy holatlar ham keltirilgan boʻlib, oʻrni bilan yozuvchi afsuslanadi, quvonadi, nafratlanadi, shubhalanadi, qiynaladi...

Memuarlarning faktik tabiati “Esdaliklar” asariga ham xosdir. Unda ham yillar va voqealar ketma ketligi faktlarga asosan yozilgan. Faqatgina yozuvchi voqelikka obrazli baho bergan. Sadridin Ayniyning “Esdaliklar” asari oʻzida memuarning barcha talablarini mujassamlashtiradi va janriy belgilarini yaqqol namoyon etadi. Taniqli oʻzbek olimi Ibrohim Haqqul taʼkidlaganlaridek, “Esdaliklar” – Ayniyning umr, tafakkur va xotira kitobi. Uni taqdirilar qomusi desa ham aslo xato boʻlmaydi” [2].

Darhaqiqat, Sadridin Ayniy oʻz zamonasining tarixini yaratdi. Zamonasiga holis baho berib, yaqin oʻtmishdagi Buxoroni gavdalantirdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

- 1.Sadridin Ayniy. Asarlar. V tom. –T.: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
2. Ibrohim Haqqul.Ulugʻlarni ulugʻlar tiriltirgay//. [www.kh.davron.uz](http://www.kh.davron.uz)